

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SINONIMLARNING KORPUS
LINGVISTIKASI TAHLILI**Normamatova Shaxzoda***O'zMU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz) yo'nalishi**1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi sinonim birliklarning til tizimidagi o'rni zamonaviy korpus lingvistikasi asosida taqqosiy ravishda tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *sinonimik qator, dominanta, korpus lingvistikasi, semantik sinonim, kontekstual sinonim, stilistik sinonim*

Zamonaviy tilshunoslikda sinonimlarni o'rganish masalasi leksik-semantik tizimning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sinonimlar tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ular uslubiy, kontekstual va funksional jihatdan tilshunoslar, tarjimonlar hamda til o'rganuvchilar e'tiborini tortuvchi birliklardir. Shu bilan birga, sinonimlar bir xil yoki yaqin ma'noni anglatganda, ularning qo'llanilishi nutq kontekstiga, madaniy muhitga va stilistik ehtiyojga bog'liq bo'lib, bu jihatlar har doim ham oddiy intuitiv yondashuv orqali tushuntirib berilmaydi.

So'zlarning turlari va ma'nolari ularni qiyoslash orqali oydinlashadi. So'z ma'nolarining o'xshashligi sinonimiyani aniqlash uchun asosiy mezon hisoblanadi. Bir tushuncha, hodisa, narsa yoki belgini ifodalovchi, ma'nolari o'xshash yoki yaqin bo'lgan, turli ma'no sifatlarini va ekspressiv-stilistik bo'yqlarni farqlash uchun xizmat qiluvchi so'zlar sinonimlar deyiladi (grekcha synonima — "bir xil ma'nodagi nom") [1].

Sinonimlar o'rganuvchining leksik boyligini oshirish, uslubiy sezgirlikni shakllantirish va mazmunni kontekstga mos ravishda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Har bir til o'ziga xos sinonimik qatorlarga ega bo'lib, ular turli uslubiy



yoki emotsional yuklama bilan bir xil yoki o'xshash ma'nolarni bildiradi. Masalan, **angry, mad, furious, annoyed** – barchasi “g‘azablangan” degan ma’noni bildirsa-da, stilistik yuklamasi turlicha, ya’ni “furious” yanada kuchli va rasmiyroq kontekstda ishlatiladi. O‘zbek tilidan misol keltiradigan bo‘lsak, **go‘zal, chiroyli, dilbar, latofatli** – bu so‘zlarning barchasi “yaxshi ko‘rinishga ega” degan ma’noni bildiradi, lekin uslubiy qo‘llanish farqlanadi:

"go‘zal ayol" – adabiy uslubda;

"chiroyli qiz" – so‘zlashuv uslubida;

"latofatli" – rasmiy, poetik uslubda keng qo‘llaniladi.

Ingliz tilida ham o‘zbek tilida ham sinonimlarni chuqur o‘rganish maqsadida tilshunoslar tomonidan o‘rganishlar amalga oshirilgan. “O‘zbek tilidagi sinonimlarning izohli lug‘ati” filologlar, yozuvchilar, shoirlar hamda til o‘rgatuvchi mutaxassislar uchun qimmatli va ishonchli manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu ilmiy-amaliy ish Azim Hojiyev tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u o‘zbek tilining sinonimik boyligini chuqur tahlil asosida namoyon etadi. Muallif lug‘atda sinonimlarning nafaqat shakliy va leksik o‘xshashliklarini, balki ularning nozik semantik va uslubiy farqlarini ham asosli tarzda yoritib beradi. Bundan tashqari, ko‘p ma’noli so‘z bir emas, ikki va uunundan ortiq sinonimik qatorda bo‘lishi mumkinligiga misollar keltirib o‘tgan[2]. Masalan, 1. bajarmoq, ado etmoq, **bitirmoq**, 2. tugatmoq, tugallamoq, tamomlamoq, **bitirmoq**, 3. tugatmoq, sob qilmoq, **bitirmoq**, yo‘q qilmoq.

Ingliz lingvistikasida esa “**Lexical semantics**” asarining o‘rni beqiyos. Ushbu asar lug‘aviy semantika sohasida klassik hisoblanadi. Muallif David Alan Cruse sinonimlarning turlari (to‘liq, qisman va yaqin sinonimlar), ularning kontekstga bog‘liq ishlanilishi, stilistik farqlari va semantik maydonlarda tutgan o‘rnini batafsil tahlil qiladi[3].

Ushbu kitobda, masalan, “big” va “large” so‘zlari ko‘pincha bir-birining sinonimi deb qaralsa-da, ularning stilistik ohanglari, kollokatsiyalari va korpusdagi ishlanish chastotasi bo‘yicha farq qilishi aniq misollar bilan ko‘rsatib berilgan. Masalan, **large number of people** iborasi to‘g‘ri, ammo **big number of people**



iborasi deyarli ishlatilmaydi. “Large” ko’proq **miqdor, hajm** haqida gap ketganda, rasmiy uslubda ishlatiladi. Shuning uchun statistik, rasmiy yoki ilmiy matnlarda **a large number of X** shakli keng tarqalgan. “Big” ko’proq emotsional, noformal, umumiy ma’nolarda ishlatiladi.

Sinonimlar, asosan, ikki yo’l bilan paydo bo’ladi [3]. Birinchisi, har bir tilning o’z ichki imkoniyatlari asosida, masalan, o’zbek tilida **qari, kekxa, chiroyli-go’zal, katta-ulkan, ulug’-buyuk** va boshqalar; ikkinchisi, boshqa tillardan o’zlashgan so’zlar hisobiga, masalan, bo’lim -otryad, dalil-fakt, reja-plan va hokazo. Sinonimlarning paydo bo’lishi til lug’at tarkibining boyib, yangilanib borishining garovidir. Ular yordamida fikr aniqroq va maqsadga muvofiqroq ifodalanishi mumkin. Ingliz tilida esa ichki rivojlanish natijasida shakllangan so’zlarga misol tariqasida **begin-start, ask-inquire** sinonimlarini keltirishimiz mumkin. Tashqi manbalardan o’zlashgan so’zlarga esa quyidagilarni keltirib o’tamiz: **Freedom** (Germanic) – **Liberty** (French via Latin)

Ikkalasi ham “erkinlik” degan ma’noni bildiradi.

“Freedom” – oddiy, keng ishlatiladigan.

“Liberty” – ko’proq siyosiy yoki rasmiy kontekstda.

End (Old English) – **Terminate** (Latin)

“End” – oddiy, sodda.

“Terminate” – rasmiy, huquqiy yoki texnik kontekstlarda.

Bundan tashqari, har bir til lingvistikasida sinonimik qator tushunchasi mavjud bo’lib, masalan, **botir, qo’rqmas, dadil, mard, jasur** yoki **baland, yuqori** so’zlari alohida sinonimik qatomi tashkil etadi. Ingliz tilida **earth, ground, land, soil** so’zlari bir sinonimik qatoiga kiradi. Biroq sinonimik qatorga kirgan har bir so’z o’zining, qo’llanishi bilan farq qiladi. Bir sinonimik qatorga kirgan so’zlar bir xil so’z turkumiga oid bo’lishi zarur [1]. Shuningdek, sinonimik qatorda salbiy ma’no ifodalovchi va ijobiy ma’no ifodalovchi so’zlar mavjud bo’ladi, masalan, **yuz, chehra, aft, turq, nusxa, chehra, oraz, bashara** sinonimik qatorida **aft, turq, nusxa** va **bashara** so’zlari salbiy ma’noda qo’llanadi.



1. Voy, basharang qursin, nima balo bo'ldi? Hammomning go'laxiga o'xshab ketibsan. [5.183].

2. Shu vaqt butalar orasidan "ket!" degan yo'g'on ovoz keldi-yu, itlarning turqi o'zgardi-qoldi [5. 203].

Bu sinonimik qatorga kiruvchi so'zlar **yuz** so'zining asosiy ma'nosi bilan birlashgan. **Yuz** so'zi mazkur sinonimik qatorning yetakchisi yoki dominanti hisoblanadi.

Har ikki tilda ham sinonimlar bir xil turlarga ajraladi [1].

1. **To'liq sinonimlar (absolute synonyms)**. Ma'no jihatidan bir-birining o'rnida hech qanday farqsiz ishlatiladigan sinonimlardir: huquqshunos — yurist, do'stlik — birodarlik, yoki inglizcha begin — start, end — finish, buy — purchase.

2. **Semantik sinonimlar (semantic synonyms)**. Ma'nodosh bo'lsa-da, ayrim semantik (mazmun) farqlarga ega bo'lgan so'zlar: sog'inch, qumsash, sog'inmoq (hammasi sog'inishni bildiradi, lekin darajasi farq qiladi), baxtli, mamnun, rozi

Ingliz tilida esa: look, glance, stare, gaze (hammasi "qaramoq", lekin usuli yoki davomiyligi farq qiladi), ask, inquire, question, strong, powerful, and forceful.

3. **Kontekstual sinonimlar (contextual synonyms)**. Faqat muayyan vaziyatda yoki matn doirasida bir-birining o'rnida ishlatiladigan so'zlar: o'qituvchi, murabbiy, ustoz (hammasi o'rgatuvchi, lekin kasb, kontekstga qarab farqlanadi), bola, farzand, nabira (shaxsga nisbatan aytilganiga qarab farqlanadi), tibbiyot, sog'liqni saqlash, davolash

Inglizcha misollar: doctor, physician, medic (konkret holatlarga bog'liq), home, house, residence, writer, author, novelist.

4. **Stilistik sinonimlar (stylistic synonyms)**. Ma'no sifatlarida emotsional-ekspressiv hissiyotni ifodalovchi sinonimlar: yuz, bashara, aft, chehra, nusxa, turq kabi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ingliz va o'zbek tillaridagi sinonimlarni korpus lingvistikasi asosida taqqosiy tahlil qilish natijasida ushbu birliklarning nafaqat semantik jihatdan, balki stilistik, kollokatsion va kontekstual xususiyatlari bilan ham farqlanishi ayon bo'ladi. Korpus materiallari orqali sinonimlarning real



nutqdagi qo'llanish chastotasi, uslubiy ohangi va birikmalardagi o'rnini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Sharq nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. T., 2010.
2. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. O'qituvchi nashriyoti. T. 1974.
3. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. Yangi asr avlodi nashriyoti. T., 2009.
4. David Alan Cruse. Lexical semantics. Cambridge University Press. 1986.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. T. 2006.